

ALISHER NAVOIY LIRIKASIDA HAYOTIY TAFSILOTLARNING BADIY-ESTETIK FUNKSIYASI

Afoqova Nodira Maxmudovna

Filologiya fanlari doktori

E-mail: afokova66@mail.ru

Annotatsiya: ushbu maqolada hayotiy tafsilotlarning sŷz san‘atidagi estetik ahamiyati atroflicha ochib berilgan. Lirikada hayotiy tafsilotlarning badiiy kŷchimlar va lirik kechinma orqali uyg‘un ifodalanishi aniq misollar bilan tahlil etilgan.

Tayanch so‘zlar: lirika, pafos, lirik kechinma, hayotiy tafsilot, estetik funksiya, obraz, she‘r, g‘azal, vazn

Hayotiy tafsilotlar so‘z san‘ati namunalarida badiiylikni ta‘min etishning muhim unsurlaridan hisoblanadi.

Ma‘lumki, bayonchilik badiiy adabiyot namunasining san‘at asari sifatidagi qimmatiga jiddiy putur yetkazadi; badiiy ijodning asosiy talabi – voqelikni jonli *tasvirlash*dir. Hayotiy tafsilotlar esa adabiy asarda *tasvir*ning asosiy unsurlaridan biri sifatida maydonga chiqadi. Zero, hayot voqealarining o‘zi katta-kichik tafsilotlardan iboratdir. Ular epik asarlarda hayot manzaralarini jonlantirishga xizmat qiladi. Yozuvchi hayotni qanchalik chuqur bilsa, sinchkov bo‘lsa va ko‘plab hayotiy tafsilotlar ichidan keraklisini san‘at qonunlari asosida saralay bilsa, badiiy tasvir shunchalik mukammal bo‘ladi. Aks holda, yozuvchi yo bayonchilik, yo siyqa naturalizm doirasiga tushib qoladi. Aniqlik, badiiy matn strukturasi uyg‘unlik – hayotiy tafsilotlardan foydalanishning bosh talabidir.

Lirikada tasvir predmeti, epos va dramadan farqli o‘laroq, voqea emas, insonning ichki subyektiv dunyosi bo‘lganligidan, hayotiy tafsilotlar bunday asarlarda ko‘proq ikkilamchi – lisoniy obrazlilik komponenti sifatida ishtirok etadi.

Ulug‘ Alisher Navoiy hayotning sinchkov kuzatuvchisi va chuqur bilimdoni edi. U gadodan tortib shohgacha, telbadan tortib donishmandgacha, dehqondan tortib amiru beklargacha – jamiyatning barcha toifa kishilari hayotini eng mayda ikir-chikirlari qadar juda yaxshi bilgan. Bundan tashqari, mutafakkir shoir hayvonot va nabotot olamining, kosmik fazo sirlarining, o‘z davri fani erishgan yutuqlarning, inson psixologiyasining ham nozik bilimdoni edi. Biz buni uning yirik epik polotnolarida ham; “Mahbub ul-qulub”, “Arba’in”, “Nazm ul-javohir” singari didaktik asarlarida ham ko‘ra olamiz.

Badiiy ijod sirlaridan birmuncha xabardor bo‘lgan kishi(ijodkor va tadqiqotchi)larga yaxshi ma‘lumki, hayot tafsilotlarini epik va didaktik asarlarda istifoda etish uncha mushkul emas, ammo bu unsurlardan lirik asarlarda foydalanish har qanday shoirida ham muvaffaqiyat bilan amalga oshavermaydi. Mubolag‘asiz aytish mumkinki, Alisher Navoiy hayotiy tafsilotlarni boshqa hech bir shoirida kuzatilmagan darajada olamni lirik idrok etish jabhasiga tadbiiq eta bildi. “*Havas*

ishq aylagan ozoda, kechkil bu xayolingdan, Ki chiqmas bu tikan ko‘nglingda nogah ustivor o‘lgach” [3, 98] deb yozadi bir g‘azalida shoir. Albatta, muallifning asosiy muddaosi – haqiqiy ishqning ko‘ngildan abadiy joy olajagini aytish. Ayni paytda o‘quvchining tasavvurini muayyanlashtirish uchun shoir mavhum tushunchani hayotiy tafsilotga parallel qo‘yadi: ya’ni, deylik, qo‘lga kirgan tikan tikka tursa, uni chiqarish qiyin bo‘lishini hamma biladi. Shoir ana shu hodisa bilan ishqning xususiyati o‘rtasida umumiylik borligini juda nozik ko‘ra bilgan – ishq ham dilda mana shunday ustivor bo‘ladigan bo‘lsa, uni ko‘ngildan chiqarishni xayol qilmaslik kerak.

Badiiy ijod sirlaridan xabardor kishilar yana shuni yaxshi biladilarki, mavhum tushunchalar bilan moddiy narsa-hodisalar o‘rtasidagi o‘xshashlik, umumiylikni ko‘ra bilish, mavhum tushunchalarni mana shu taxlit “moddiylashtirish”, ifodalashgina mumkin bo‘lgan hodisani suvratlantirish assotsiativ tafakkuri chuqur, tasavvur kuchi juda o‘tkir ijodkorlargagina xosdir. Navoiyning mahorati shundaki, u shunchaki mushohada yuritmaydi, o‘z mulohazasini bayon qilmaydi; bil’aks, haqiqiy badiiy suvrat – yorqin tasvir yaratadi (shoir lirikasida hayotiy tafsilotlar masalasiga maxsus bag‘ishlanmagan bo‘lsa-da, ko‘plab katta-kichik ilmiy tadqiqotlarda bu mavzuga u yoki bu munosabat bilan daxl qilib o‘tiladi. Misol uchun q.: [1, 2, 6, 7]). Umuman, mazkur masalani Alisher Navoiy lirikasi materialida kuzatish shuni ko‘rsatdiki, hayotiy tafsilotlar aksariyat hollarda parallelizmga, o‘xshashlikka asoslanadigan maxsus tasvir vositalari tarkibida uchraydi.

Albatta, lirikada, binobarin, Alisher Navoiy lirikasida ham hayotiy tafsilotlar, avvalo, yuksak badiiylikni ta’minlash, assotsiatsiya asosida o‘quvchi tasavvurini muayyanlashtirishga yo‘naltiriladi, o‘quvchida kuchli estetik zavq tug‘diradi, ta’sirdorlikni oshiradi. Chunonchi:

***Qoldi hayron zohid ashkimda ko‘rub har yon hubob,
Ro‘stoyidekki, hayrat aylagay o‘rdu ko‘rib [3, 69].***

Ya’ni: ishq sirlaridan bexabar zohid oshiqning – ustiga pufakchalar chiqish qadar daryo bo‘lgan ko‘zyoshlarini ko‘rib xuddi shaharga kelib qolgan qishloqidek hayratga tushdi. Shoir tarkidunyochi zohidning hammaga ham uncha tushunarli bo‘lavermagan hayratini oddiy, hammaga ma’lum bo‘lgan hayotiy tafsilot – shaharga kelib qolgan qishloqi kishining hayratiga o‘xshatib, o‘quvchi tasavvuriga aniqlik kiritgan. Yoki yana:

***Orazing mushtoqidur bu ko‘zki bo‘lmish dardmand,
Garchi bordur dardlig‘ ko‘zga yorug‘liqtin gazand [3, 115].***

Bu baytda hayotiy tafsilot tazod komponenti sifatida ishtirok etgan. Ya’ni shoir o‘quvchiga yetkazmoqchi bo‘lgan holat-hodisani o‘sha hodisaning ziddini

keltirish orqali tasavvur qildiriyapti: og‘rigan ko‘zga yorug‘lik zarar keltiradi (hayotiy tafsilot), ammo shunday bo‘lishiga qaramasdan, oshiqning sog‘inchdan dardmand bo‘lgan ko‘zlari yorning shu‘lavor chehrasini ko‘rishga mushtaq bo‘laveradi (lirik kechinma). Bunday misollar shoir she‘riyatida juda ko‘p.

Ayni paytda hayotiy tafsilotlar bugungi kunda boshqa jihatdan ham juda muhim, ya‘ni, *“hozirgidek burungi shoirlar ham o‘quvchining hissiga ta‘sir qilish uchun aksari uning o‘zida bo‘lgan tayyor hisdan foydalangan”*[5, 60]liklaridan kelib chiqsak, bugungi kitobxon va tadqiqotchi shu tafsilotlar orqali o‘sha davr hayoti manzaralari, bundan olti asr muqaddam yashagan kishilar maishiy turmushiga oid ma‘lumotlardan xabardor bo‘ladi.

Chunonchi, fol ochish:

La‘ling olg‘an ko‘nglum ahvolin munajjim chun ko‘rar,

Aytur: ul avvora bo‘lg‘an g‘oyibingdur qon aro [3, 39];

(mazmuni: *labing ko‘nglimni o‘g‘irlab ketgan, undan fol ochtirsam, munajjim aytadiki: yo‘qolib qolgan ko‘ngling qon ichidadir*);

ro‘zg‘orda shisha idishlardan foydalanish:

Soda ko‘nglum ichra la‘lingning xayoli tushgali,

Shishayedurkim, aning ichiga solmishlar nabot [3, 81];

(mazmuni: *soddagina ko‘nglim ichiga labingning xayoli tushgan, bu novvotning shisha ichiga solinishiga o‘xshaydi*);

ro‘za oyi kirganligini oyga qarab aniqlash:

Ro‘za oyin ko‘rmay ilgingdin qadahni solmag‘il,

Lek ol bayram hiloli ham ko‘rungan tun qadah [3, 103];

(mazmuni: *ro‘za oyini ko‘rmasdan turib may ichishni to‘xtatma, lekin ro‘za hayiti hiloli ko‘rinishi bilan qo‘lingga qadah ol*);

pistani bugungiga o‘xshab sho‘rlash:

Og‘zidin achchig‘ so‘z aytib, zohir etsa zahri chashm,

Ayb emastur, pista sho‘ru, tong emas, bodom talx [3, 107];

(mazmuni: *og‘zidan achchiq so‘zlarni aytib, ko‘zidan zaharlar sochadi; pistaning sho‘rli ayb, bodomning achchiqligi hayratlanarli bo‘lmaganidek, bu hol ayb ham, hayron qolarli ham emas*);

Navoiy yana shunday hayotiy tafsilotlarni istifoda etadiki, ular 5-6 asr beridagi kitobxonga o‘sha davr ijtimoiy hayotidagi ayrim qonun-qoidalardan, taraqqiyot darajasidan, turmushning ayrim detallaridan xabar beradi. Bu tafsilotlar nafaqat adabiyotshunoslar yoki so‘z san‘ati muxlislari uchun, balki boshqa soha tadqiqotchilari, tarixchilar, tarixiy mavzuda asar yozmoqchi bo‘lgan adiblar, rejissyorlar uchun ham muhim bo‘lishi mumkin. Jumladan, oltinni eritish jarayoni:

Oltin ezinib-erib kuygan sayi xolis bo‘lur,

Ne ajab, sarg‘arsa yuz yetkan sayi emgak manga [3, 33]

(mazmuni: *oltinni ezgan-eritgan sayin tozarib borgani kabi mashaqqatlarga uchragan sari mening yuzimning (toza oltinday) sariq bo‘lishi ham hayron qolarli emas*);

ko‘zoynak yasash:

Boda hajridin oqarmish ko‘zlarim, ey piri dayr,

Aylagil may shishasidin sindurib aynak manga [3, 33]

(mazmuni: *ey piri dayr, may ichmaganlikdan ko‘zlarimga oq tushdi (kasallandi), (ko‘zlarimning yaxshi ko‘rishi uchun) may shishasini sindirib menga ko‘zoynak yasab ber*);

sallaga muhr (yoki gul) bosish:

Qo‘ydi gulgun muhrlar jon pardasida qon ila,

Vahki, solur muhri yo gulmu ekin dastorida [3, 45]

(mazmuni: *(ma‘shuqa) jon pardasiga qondan gullar bosdi, bu sallasiga muhr bosganimi yoki gulmi?*);

Ollig‘a gullarki sanchibdur, mushobihdir anga

Kim, tushar gohe mulavvan muhr dastor ollida [3, 46]

(mazmuni: *(sochining) oldiga gullarni qadab qo‘yibdi, bu xuddi salla oldiga ba‘zan rango-rang muhr bosilganiga o‘xshaydi*);

sixkabob pishirish:

Gar Navoiyning kuyuk bag‘rida qondur, ne ajab,

Xomso‘z o‘lur yolin uzra tushib kuygan kabob [3, 57]

(mazmuni: *Navoiyning kuygan bag‘rida qon ko‘rinsa hayron bo‘larli emas, chunki kabob ham cho‘g‘ ustiga tushsa xomso‘z (kuyuk va qon aralash) bo‘ladi*);

qaroqchilik rusumi:

Ko‘ngullar naqdini toroj etarga yopmog‘ing burqa‘,

Aningdekdurki, yuz bog‘lar qaraqchi korvon ko‘rgach [3, 97]

(mazmuni: *ko‘ngillarning naqdi(mulki)ni talon-taroj etish uchun yuzingga parda tutishing qaroqchi karvon (talash uchun) ko‘rinishi bilan yuzini bog‘lab olishiga o‘xshaydi*);

shoirlarni mukofotlash:

Navoiy, xurdai nazmingni andoq aylading tahrir,

Ki, sochqay xurda boshing uzra shoh xurdadon ko‘rgach [3, 97]

(mazmuni: *Navoiy, she‘ringni mayda-chuydalarigacha shunday tahrir qilding(pardozlading)ki, (bundan muddao) shohning nozikfahmliging uchun boshingdan oltin sochishidir*);

o‘g‘rini jazolash:

**Jong‘a qo‘ygach naqdi ishqing qildi ko‘nglumni halok,
O‘lturur mahramni sulton ganj pinhon aylagach [3, 99]**

(mazmuni: *ishqing ganjini jonimga yashirganim uchun ko‘nglimni halok qilding, chunki xizmatkori oltin-kumushlardan o‘g‘irlab, yashirsa, sulton ham uni qatl qildiradi*);

azada yig‘lash:

**Kun shuoiy xatlari ermashi, tutmish motamim,
Yuzni anjum tirnog‘i birla qilib afgor subh [3, 103]**

(mazmuni: *bu quyoshning nurlari emas, mening motamimda tongning yulduzlar tirnog‘i bilan o‘z yuzi(osmon)ni tirnab majruh qilganligidir*);

po‘latdan qilingan asboblarni o‘tkirlash:

**Ashkimni ko‘rub tez bo‘lur ko‘ngli jafog‘a,
Ore, itimas chunki suyi bo‘lmasa fo‘lod [3, 113]**

(mazmuni: *ko‘z yoshlarimni ko‘rib (ma‘shuqaning) jafolar qilishi tezlashadi, shubhasiz, suv bo‘lmasa po‘lat ham o‘tkir bo‘lmaydi*);

xatni yelimlab jo‘natish:

**Tirilmisham bitigingdin, qilurda muhr magar
Labingg‘a tegdiyu, kelturdi tuhfa jon kog‘az [3, 122]**

(mazmuni: *maktubing menga jon bag‘ishladi, chunki uni lablaring bilan muhrlagansan, shuning uchun (xat yozilgan qog‘oz jon tuhfasini bilan keldi)*;

uyga yorug‘lik tushishi uchun eshikka qo‘yiladigan tuynuk(tobdon)larni qog‘oz bilan yopish:

**Ochildi xasta ko‘ngul ruq‘asin yaramg‘a yopib,
Yorug‘ bo‘lur emish uy bo‘lsa tobdon kog‘az [3, 122]**

(mazmuni: *(yorning) maktubini yaramga bosgach, ko‘nglim yorishdi, eshikka qo‘yilgan tuynuk ham qog‘oz bilan yopilsa, uy yorug‘ bo‘ladi*);

Endi mana bu baytga diqqat qarataylik:

**Tiyg‘ ila paykonlaring yetti ko‘ngul bo‘lg‘ach xarob,
Suv quyub tuxm eking ul kishvarni vayron aylagach [3, 98]**

(mazmuni: *ko‘nglim (ishq tufayli) xarob bo‘lgandan keyin unga tig‘ va paykonlarning yetib keldi – u mamlakatni vayron qilgandan keyin suv qo‘yib, ekin ekib yubording*).

Bu hayotiy tafsilot o‘ylab topilgan yoki ertaklardan olingan emas. Agar o‘sha davrdagi turli xil harbiy yurishlarda bosib olingan mamlakat yoki shaharlarning fotihlar tomonidan tep-tekis qilinib, ekin ekib yuborilishi kabi faktlar bo‘lmaganda, shoir bunday o‘xshatishdan foydalanmas edi. Mana bu bayt esa ijodkor yashagan ijtimoiy muhitda inson hayotining, uning taqdiri, orzu-intilishlarining arzimas bir narsa bo‘lganligidan darak bermaydimi:

***Davron sanga zulm etsa, qadahlar to‘la may ich,
Qon yutsang ayog‘lar to‘la davrong‘a ne parvo [3, 52]?***

(mazmuni: *davron senga zulm qilsa, qadah to‘la may ich, chunki qadah to‘la qonlar yutsang ham davronning parvoyiga kelmaydi*).

Ma‘lumki, Alisher Navoiy yirik epik asarlarida turli syujetlar vositasida o‘zi yashab turgan jamiyatga oid tanqidiy qarashlarini katta jasorat bilan o‘rtaga tashlay bilgan. Butun kuchini xalq manfaatiga yo‘naltirgan Farhodning, chinakam insoniy fazilatlar sohibi bo‘lgan Layli va Majnunning oxir-oqibatda halokatga mahkum bo‘lishi mutafakkir shaxsning o‘z davriga bergan bahosi o‘laroq ko‘zga tashlanadi. Xususan, shoh Bahrom taqdirining fojiali yakunida mutlaq hokimiyatga asoslangan davr ijtimoiy tuzilmasining nobopligiga, bunday tuzumda biror tabaqa vakili baxtli bo‘la olmasligiga oid xulosa muhrlangan. Yuqoridagi ikki she‘riy parchada istifoda etilgan hayotiy tafsilotlar shoirning bu taxlit xulosasini mustahkamlaydi. Zamon va tuzum haqidagi bu nuqtayi nazar tasodifiy bo‘lmay, mutafakkir shaxsning, gumanist adibning o‘z zamoniga oid barqaror bir qarashi bo‘lganligini tasdiqlaydi. O‘zi yashab turgan tuzumning mohiyatini ana shunday chuqur anglagan shoir xalq ommasining qudratli bir kuch ekanligini ham to‘g‘ri baholaydi:

***Shah sipah cheksa, faqir ahvoliga yetmas futur,
Bu vale chekkach nafas, barbod o‘lur hashmat anga [3, 31].***

(mazmuni: *shoh harbiy yurishlar qilsa faqirning ahvoliga putur yetmaydi, ammo faqir oh cheksa (yoki qo‘zg‘alsa) shohning butun hashamati barbod bo‘ladi*).

Hayvonot va nabotot olamiga oid nozik kuzatishlar ham shoir she‘rlarida tasvir komponenti sifatida badiiy matn strukturasi olib kirilgan:

***Istamish bulbul vafo guldin, magarkim joladin
Bag‘ri qotmish g‘unchaning, baskim erur xandon anga [3, 32];***

(mazmuni: *bulbul guldan vafo istaydi (ochilishini kutadi), ammo (bulbulning ko‘z yoshlari tufayli) g‘unchaning ustiga ko‘p jala yoqqanidan u qotib qolgan, endi ochilmaydi*);

***Baski qonimni yalarlar adadi ko‘p yaradin,
Itlarin qildi muloyim tani afgor manga [3, 34];***

(mazmuni: *(yorning) itlari tanimdagi juda ko‘plab yaralardan qon yalaydilar, jarohatli tanam (ovqat berib o‘zimga o‘rgatganim) tufayli itlar menga o‘rganishgan, (qopmaydilar)*);

***Ko‘ngullar nolasi zulfung kamandin nogahon ko‘rgach,
Erur andoqki, qushlar qichqirishqaylar yilon ko‘rgach [3, 96];***

(mazmuni: *zulfingni ko‘rgach (oshiq) ko‘ngillar nola tortib yuboradilar, bu xuddi ilonni ko‘rgan qushlarning qichqirib yuborishiga o‘xshaydi*);

***Jon aro tiyg‘ing ko‘rub ko‘nglum qushi tuzdi navo,
To‘tiyedekkim, takallum aylagay ko‘zgu ko‘rib [3, 69].***

(mazmuni: *jon ichida sen otgan tig‘larni ko‘rib jonim qushi kuylab yubordi, bu xuddi ko‘zguda o‘z aksini ko‘rgan to‘tining gapirishiga o‘xshaydi*);

Yana bir qator tafsilotlar inson ruhiyati bilan bog‘liq. Faqat bolalar psixologiyasiga oid mana bu uch misoldayoq shoirning bu borada ham sinchkov kuzatuvchi bo‘lganligini ko‘ra olamiz:

Ko‘z yoshim bo‘ldi ravon bir nargisi jodu ko‘rib.

Tifl yanglig‘kim, yugurgay har taraf ohu ko‘rib [3, 69]

(mazmuni: *(yorning) jodulaguvchi nargismonand ko‘zlarini ko‘rib ko‘z yoshlarim ohuni ko‘rib har tarafga yugurgan bolalar kabi oqib ketdilar*);

***Xadanging zaxmi ichindin balolarni yug‘an yoshim,
Erur tifleki, olg‘ay qush bolasin oshyon ko‘rgach [3, 97]***

(mazmuni: *o‘qlaring hosil qilgan jarohat ichidan balo(yiring va fasod)larni yugvan ko‘z yoshim qushning bolasini inidan oladigan boladaydir*);

***Qalag‘ay sahfa ruq‘angni ko‘rub oqti yoshim
Tifldekkim, yugurur ko‘rsa mulavvan ko‘palak [3, 268]***

(mazmuni: *qalag‘ay qog‘ozda yozilgan maktubingni ko‘rib ko‘z yoshlarim rang-barang kapalaklarni ko‘rib yugurgan bolalarga o‘xshab oqib ketdi*);

Yana ta‘kidlash ortiqcha emas: Alisher Navoiy xalq turmushining juda katta bilimdoni edi. U xalq hayotining uncha-muncha ijodkor nazari to‘xtalmaydigan eng mayda ikir-chikirlarigacha kuzatgan, bilgan va ulardan lirik asarlarida mahorat bilan foydalana olgan. Mana bu baytda o‘sha paytlarda amal qilgan bir udum o‘z aksini topgan:

***Tikti ko‘ksim chokinu, tiyg‘in tanimda qildi gum,
El eshikni qulf etib tufroqqa ko‘mgandek kalid [3, 120]***

(mazmuni: *odamlar uyni qulflab, kalitni tufroqqa ko‘mib yashirib ketganlaridek, (u) ko‘ksimning chokini tikib, tig‘ini tanamda yashirib qo‘ydi*);

Shoir lirikasida yana shunday baytlar borki, ularni maxsus kuzatishlarsiz yoki maxsus bilimlarsiz tushunish mushkul. Chunonchi:

***Kosh o‘yub yoqsang qaro bo‘lg‘an ko‘zumning mardumin,
Xoli mayguningni qilg‘ancha qo‘yub anbar qaro [3, 48].***

Baytning mazmuni shunday: may rangidagi xolingni anbar bilan qaro qilgandan ko‘ra, koshki mening qop-qora bo‘lgan ko‘zim mardumagini o‘yib, yoqsayding. Xo‘sh, xolni anbar bilan bo‘yashning ko‘z mardumini o‘yib, yoqish bilan nima aloqasi bor? Surma tayyorlash jarayonini bilgan kishi uchun bu ikki hodisaning aloqasi bor. Qadimdan ma‘lum bo‘lgan va bizning kunlarda ham saqlanib qolgan xonaki texnologiyaga ko‘ra, surma tayyorlash uchun mol suyagi ichidagi ilik olinib, eritiladi. Keyin undan sham tayyorlab, yoqiladi; tutuniga metall yoki oyna parchasini tutib, hosil bo‘lgan qurum yig‘iladi. Mana shu qurum – surmaning o‘zidir. Oshiq istaydiki, suyak ichidagi ilik o‘rniga uning ko‘zi ichidagi mardumakni yoqib, surma tayyorlasinlaru, ma’shuqa undan xolini qora qilish uchun foydalansin. Borakalloh, hayot qadar qimmatga ega bo‘lgan ko‘z mardumini yoqib, xol bo‘yash uchun necha-nechalab moddalar tiqilib yotgan olamda ma’shug‘iga nisor qilmoqchi bo‘lgan oshiqqa! Shoir asosan ayollar tomonidan qo‘llangan texnologiyadan ham boxabar bo‘lgan va uni ingichka bir mahorat bilan ishqiy bayt mazmuniga uyg‘unlashtira olgan.

Alisher Navoiy g‘azallarini hayotiy tafsilotlar nuqtayi nazaridan kuzatish yana shunday xulosani beradiki, shoir badiiy ijodning mohiyatini, san‘atkor shaxsning ijtimoiy borliqdagi o‘rni va vazifalarini juda keng va teran – hayotga faol munosabatda bo‘lish, uning har bir narsa-hodisasiga tiyrak qarash, xalq turmushining eng mayda ikir-chikirlariga ham befarq bo‘lmaslik; badiiy fikrni xayoliy o‘ydirmalar vositasida emas, shu asar o‘quvchisining kundalik turmushiga daxldor, unga tanish bo‘lgan narsa-hodisalar orqali anglatish tarzida tushungan. Bu mulohazalarning ahamiyati shundaki, bugungi kitobxon o‘zining ulug‘ shoirini ko‘p hollarda o‘zidan ancha yiroq – balandda turguvchi, oddiy odamning aqli yetmaydigan buyuk, xayoliy narsa-hodisalarnigina kuylagan yoki faqat Alloh ishqiy bilan yashab, yerni unutkan samoviy shoir sifatida qabul qilayotgani, ayrim adabiyotshunoslar ham shoir ijodini mana shu taxlit tadqiq etayotganlari sir emas. Vaholanki, Alisher Navoiy shohlaru saroylardan tortib oddiy xalqning kundalik turmushi va kulbasigacha – hayotning jamiyki qavatlarini juda chuqur bilgan; u mahzun qalbi, chuqur insoniy iztiroblari, komil inson sog‘inchi va insonparvar g‘oyalari bilan barcha zamon va makon kishilari ko‘ngliga juda yaqin ijodkordir. Bundan tashqari, buyuk shoir ijodi – she’rni kundalik turmush hodisalari bilan to‘qnashmaydigan samoviy sayyora deb tushunadigan bugungi ayrim qalamkashlar uchun ham katta ijod maktabidir.

Xulosa shuki, Alisher Navoiy lirik asarlarida hayotiy tafsilotlar, avvalo, yuksak badiiylikni ta‘minlashga xizmat qiladi; minba‘d esa, shoirning hayotni chuqur bilishini ko‘rsatish barobarida davr hayoti manzaralari bilan, xalq turmushining katta-kichik detallari bilan tanishtiradi.

Agar shoir she’rlarida shunchaki badiiy tasvir vositasi sifatida maydonga chiqqan hayotiy tafsilotlarni bir joyga jamlasak, tarixiy davr va unda yashagan kishilar turmushiga oid katta ensiklopediya, shuningdek, ajoyib hikmatlar kitobi vujudga keladi.

Zamonaviy ilmu fan tamoyillari bilan ish ko‘rayotgan bugungi navoiyshunoslik bir asrdan ziyod vaqt mobaynida ulug‘ adib asarlarini to‘plash, tabdil va nashr qilish, ilmiy tadqiq etish borasida katta ishlarni amalga oshirdi. Biz mutafakkir shoir yashagan asrdan ancha uzoqlashdik. Ijtimoiy va texnikaviy taraqqiyotdan tashqari, turmush tarzi, maishiy urfu rusumlar ham o‘zgardi. Shunga ko‘ra, bugunga kelib adabiyotshunoslik oldida ilm ahli uchun amalga oshiriladigan chuqur tadqiqotlardan tashqari, Alisher Navoiy asarlarini zamondosh o‘quvchiga tushunarli tarzda yetkazish, ularning chinakam xalqchil, oddiy odamlar qalbiga-da yaqin asarlar ekanligini ko‘rsatishdan iborat vazifa ham turibdi. Mazkur maqola ana shu maqsad yo‘lidagi kichik bir qadamdir.

Adabiyotlar:

1. Abdug‘afurov A. Misralar jozibasi // Alisher Navoiyning adabiy mahorati masalalari. Maqolalar to‘plami. – T., Fan, 1993. – 26-51-b.
2. Jumayev N. G‘azalda g‘oya va badiiy mahorat mutanosibligi // Alisher Navoiyning adabiy mahorati masalalari. Maqolalar to‘plami. – T., Fan, 1993. – 51-67-b.
3. Navoiy A. Mukammal asarlar to‘plami. Yigirma tomlik. Uchinchi tom. – T., Fan, 1988.
4. Shamsiyev P., Ibragimov S. Navoiy asarlari lug‘ati. – T., G‘.G‘ulom nomidagi adabiyot va san‘at nashriyoti, 1972. Qahhor A. Asarlar. Besh jildlik. Beshinchi jild. – T., G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti, 1989.
5. Qahhor A. Asarlar. Besh jildlik. Beshinchi jild. – T., G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti, 1989.
6. G‘aniyeva A. Navoiy marsiyalari. – T., Akademnashr, 2010.
7. Hayitmetov A. Adabiy merosimiz ufqlari. – T., O‘qituvchi, 1997.